



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراسi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevalilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI

Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi

*bank ishi yo‘nalishi magistrature talabasi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: kamolaxoldorova7@gmail.com*

Murodova Dilnoza Choriyevna

*bank ishi kafedrasining dosenti DSc
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: dilnoz88.murodova@mail.ru
ORCID: 0000-0002-3613-9392*

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari o‘rganilgan. 2020-2025 yillardagi bank tizimini isloh qilish strategiyasi va 2022-2026 yillardagi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi talablari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat banklarini xususiyashtirish, muammoli kreditlar (NPL) va kapital yetarlilik masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot yakunida bank tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy takliflar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, transformatsiya, xususiyashtirish, muammoli kreditlar (NPL), kapital yetarliligi, bank islohotlari, davlat ulushi, bank tizimi barqarorligi.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА

Холдорова Камола Джамолитдиновна

*магистрант
направление банковское дело
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: kamolaxoldorova7@gmail.com*

Муродова Дилноза Чориевна

*DSc доцент кафедры банковского дела
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: dilnoz88.murodova@mail.ru
ORCID: 0000-0002-3613-9392*

Аннотация. В статье рассмотрены актуальные вопросы трансформации коммерческих банков Узбекистана. Проанализированы стратегия реформирования банковского сектора на 2020-2025 годы и требования Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. Рассмотрены вопросы внедрения цифровых технологий, приватизации государственных банков, проблемных кредитов (NPL) и достаточности капитала. По итогам исследования представлены научные и практические предложения, направленные на совершенствование банковской системы.

Ключевые слова: коммерческий банк, трансформация, приватизация, проблемные кредиты, достаточность капитала, банковские реформы.

URGENT ISSUES OF TRANSFORMING COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN

Xoldorova Kamola Jamoliddinovna





Master's student
Banking Tashkent State
University of Economics

E-mail: kamolaxoldorova7@gmail.com

Murodova Dilnoza Choriyevna

Associate Professor
of the Department of Banking DSc
Tashkent State the University of Economics
E-mail: dilnoz88.murodova@mail.ru
ORCID: 0000-0002-3613-9392

Abstract. The article examines topical issues of transforming commercial banks in Uzbekistan. The banking sector reform strategy for 2020-2025 and the requirements of the New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026 have been analyzed. Issues related to the introduction of digital technologies, privatization of state-owned banks, non-performing loans (NPL), and capital adequacy have been addressed. The study concludes with scientific and practical recommendations aimed at improving the banking system.

Keywords: commercial bank, transformation, privatization, non-performing loans, capital adequacy, banking reforms, financial stability.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bu bank tizimini transformatsiya qilish hisoblanadi. Prezident tomonidan 2020-yil 12-mayda imzolangan PF-5992-sonli Farmon bank tizimini 2020–2025-yillarda isloh qilishning strategik yo'nalishlarini va huquqiy mezonlarini belgilab berdi. Mazkur hujjat bilan bank sektorini transformatsiya qilishning strategik yo'nalishlari, jumladan, davlat ulushini kamaytirish va zamonaviy raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi doirasida bank tizimini transformatsiya qilish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bunda kredit qo'yilmalarining YaIMga nisbatan mutanosibligi hamda 2026-yil yakuniga qadar bank sektorida xususiy ulushning 60 foizga oshirilishi iqtisodiy barqarorlikning asosiy omili bo'ladi.

Bank sektoridagi transformatsiya jarayonlari bir qator to'siqlarga duch kelmoqda: bular qatorida davlat ulushining kattaligi, xususiylashtirishning kechikayotgani va muammoli kreditlar bilan bog'liq masalalarni sanab o'tish mumkin. Raqamli bank xizmatlarini tartibga solishdagi kamchiliklar ham mavjud vaziyatni murakkablashtirmoqda. Ushbu maqolada mazkur muammolarni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar sharhi

Bank tizimini transformatsiya qilish masalasi xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng ko'lamda tadqiq etilgan.

O'zbek olimlari bank tizimini transformatsiya qilishning turli jihatlarini o'rganib kelishmoqda. Yo. Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmurodov va S. Abdullayeva (2009) o'zlarining 'Bank ishi' kitobida bank faoliyatini baholashda kapital, aktivlar sifati, likvidlilik va daromadlilik kabi ko'rsatkichlarning muhimligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston tijorat banklari faoliyatini baholashda asos qilib olingan. O.R.Rahimov va A.E.Ishmuhammedov esa bank faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimini o'rganib, bank risklari va byudjet tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilganlar. Mahalliy ilmiy ishlarda O'zbekistonda bank transformatsiyasi asosan kapital yetarliligi, kredit portfeli sifati va raqamli xizmatlar yo'nalishida ko'rib chiqiladi, lekin xususiylashtirish samaradorligini baholash metodologiyasi hali mukammal darajada ishlab chiqilmagan.





XVF tomonidan 2025-yilda birinchi marta o‘tkazilgan Moliyaviy Sektorni Baholash Dasturi (FSAP, IMF Country Report No. 25/145) O‘zbekiston bank tizimidagi asosiy zaifliklarni aniqlab berdi. XVFning 2025-yildagi FSAP hisoboti O‘zbekistonda bank tizimini transformatsiya qilishda davlat ishtirokini kamaytirish, imtiyozli kreditlashdan voz kechish va aktivlar sifatini IFRS 9 standartlariga muvofiqlashtirishni asosiy vazifalar sifatida belgiladi. Shuningdek, xatarlarga asoslangan nazoratni kuchaytirish va bank boshqaruvida xususiy sektorni jalb qilish dolzarb yo‘nalishlar hisoblanadi

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda ma’lumotlarni tahlil qilishning bir qator samarali usullari qo‘llanildi. Xususan, jadvallar yordamida qiyosiy va statistik guruhlash amalga oshirildi, muammolarni o‘rganishda esa tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil hamda ekspertlar xulosalariga tayanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayonini har tomonlama baholash maqsadida bank tizimining uchta asosiy ko‘rsatkichi — kapital yetarliligi, muammoli kreditlar (NPL) darajasi va likvidlik holati — qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 1-yanvar va 2026-yil 1-yanvar holatlariga oid rasmiy statistik ma’lumotlaridan foydalanildi. Ushbu ko‘rsatkichlar bank tizimining moliyaviy barqarorligi va transformatsiya samaradorligini baholashda xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan CAMELS tizimining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

1-jadval.

Bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasi (www.cbu.uz) *

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2025 y.		01.01.2026 y.	
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda
I darajali kapital	102 618	82,2%	125 156	83,0%
<i>Asosiy kapital</i>	<i>102 396</i>	<i>82,1%</i>	<i>120 992</i>	<i>80,2%</i>
<i>Qo‘shimcha kapital</i>	<i>221</i>	<i>0,18%</i>	<i>4 164</i>	<i>2,76%</i>
II darajali kapital	22 175	17,8%	25 706	17,0%
Jami regulyativ kapital	124 793	100%	150 862	100%
<i>Kapital monandlilik darajasi</i>		<i>17,4%</i>		<i>18,3%</i>
<i>I darajali kapital monandlilik darajasi</i>		<i>14,3%</i>		<i>15,2%</i>
<i>I darajali asosiy kapital monandlilik darajasi</i>		<i>14,2%</i>		<i>14,7%</i>

*www.cbu.uz

1-jadval bank tizimi transformatsiyasining moliyaviy barqarorlik jihatidan qanchalik muvaffaqiyatli kechayotganini kapital yetarliligi ko‘rsatkichlari orqali yaqqol ko‘rsatib beradi. Ma’lumki, 2020-yilda qabul qilingan PF-5992-son Farmon bank tizimini isloh qilishning ustuvor





yo‘nalishlaridan biri sifatida kapitallashuvni oshirishni belgilagan edi. Ushbu strategik maqsad o‘z samarasini bergani jadval raqamlarida aniq namoyon bo‘lmoqda: jami regulyativ kapital bir yil ichida 124 793 mlrd. so‘mdan 150 862 mlrd. so‘mga ko‘tarilib, o‘sish 26 069 mlrd. so‘m yoki 20,9 foizni tashkil etdi. Bu esa bank tizimida transformatsiya jarayonining kapital mustahkamlanishi sifatida namoyon bo‘layotganini tasdiqlaydi. Kapital tarkibidagi o‘zgarishlar transformatsiyaning sifat jihatini ham ochib beradi. I darajali kapital 102 618 mlrd. so‘mdan 125 156 mlrd. so‘mga oshgan bo‘lsa, qo‘shimcha kapital ushbu davrda 221 mlrd. so‘mdan 4 164 mlrd. so‘mga — ya‘ni 18 barobar — keskin o‘sdi. Bu holat tijorat banklari transformatsiya jarayonida an’anaviy kapital manbalaridan tashqari subordinar qarz va gibrud moliyaviy instrumentlarga murojaat etayotganini, ya‘ni boshqaruv modelini zamonaviylashtira boshlaganini ko‘rsatadi. Kapital monandlilik darajasi 17,4 foizdan 18,3 foizga yuksalib, Basel III talabidan (8%) ikki barobar ortiq bo‘lishi transformatsiya strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri — xalqaro standartlarga muvofiqlikka erishish — amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, I darajali kapital monandlilik darajasining 14,3 foizdan 15,2 foizga, asosiy kapital monandlilik darajasining esa 14,2 foizdan 14,7 foizga o‘shishi xalqaro investorlar va reyting agentliklari uchun O‘zbekiston banklarining ishonchlilik darajasi ortayotganining isboti hisoblanadi. Shunday qilib, 1-jadval ko‘rsatkichlari bank tizimining transformatsiya yo‘lida kapital mustahkamligi va moliyaviy barqarorlik bo‘yicha muhim yutuqlarga erishayotganini, biroq bu jarayonni yanada chuqurlashtirish uchun xususiyashtirish va bozor raqobatini kuchaytirish zarurligi qolayotganini ko‘rsatib turadi.

2-jadval.

**Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida
2026-yil 1-yanvar holatiga ma‘lumot, (www.cbu.uz), mlrd. So‘m**

*www.cbu.uz

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		604 002	18 055	3,0%
Davlat ulushi mavjud banklar		404 469	12 834	3,2%
1	O‘zmilliybank	105 382	2 989	2,8%
2	Agrobank	81 108	2 698	3,3%
3	O‘zsanoatqurilishbank	64 936	1 642	2,5%
4	Asaka bank	41 464	1 502	3,6%
5	Xalq banki	33 600	1 032	3,1%
6	Biznesni rivojlantirish banki	24 552	1 110	4,5%
7	Mikrokreditbank	20 278	894	4,4%
8	Aloqa bank	18 810	477	2,5%
9	Turon bank	14 338	489	3,4%
Boshqa banklar		199 533	5 221	2,6%
10	Ipoteka-bank	35 443	1 257	3,5%
11	Kapital bank	36 307	1 020	2,8%
12	Hamkorbank	23 965	192	0,8%
13	Ipak yo‘li bank	16 074	180	1,1%
14	Orient Finance bank	14 212	21	0,1%
15	Tibisi bank	10 346	591	5,7%
16	Anor bank	10 092	479	4,7%
17	Davr bank	8 892	286	3,2%

2-jadval muammoli kreditlar (NPL) bilan ishlash samaradorligini aks ettiradi. 2026-yil 1-yanvar holatiga jami NPL 18 055 mlrd. so‘m yoki kredit portfelining 3,0 foizini tashkil etmoqda. Jadval ikkita asosiy xulosaga asos beradi. Birinchisi — erishilgan yutuqlar: Davlat banklari (NPL 3,2%) va xususiy banklar (NPL 2,6%) o‘rtasidagi farq xususiyashtirish strategiyasining iqtisodiy asoslilikini tasdiqlaydi. Hamkorbank (0,8%), Ipak yo‘li bank (1,1%) va Orient Finance bank (0,1%) kredit boshqaruvida yuqori samaradorlikni namoyish etmoqda. Ikkinchisi — hal etilmagan muammolar: Tibisi bank (5,7%) Markaziy bankning 5 foizlik





nazorat chegarasini oshib ketgan; Biznesni rivojlantirish banki (4,5%) va Mikrokreditbank (4,4%) xavf ostida. Agrobank, Asaka bank va Turon bankidagi muammoli kreditlar xususiylashtirish oldidan albatta tartibga solinishi zarur. XVFnning 2025-yilgi FSAP hisobotiga ko‘ra, IFRS 9 bo‘yicha 3-bosqich kreditlar rasmiy NPL ko‘rsatkichidan sezilarli yuqori bo‘lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, NPL yo‘nalishida muayyan natijalar qo‘lga kiritilgan, biroq xususiylashtirish va boshqaruv islohoti kompleks amalga oshirilmasdan, bu jarayon to‘liq samarasini bermaydi.

3-jadval.

Bank tizimi likvidlilik dinamikasi, (www.cbu.uz).

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2025 y.	01.01.2026 y.
Yuqori likvidli aktivlar (mlrd. so‘m)	133 229	189 082
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, foizda*	17,3%	21,1%
Likvidlilikni qoplash me‘yori (<i>min. talab 100%</i>)	193,8%	207,5%
Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori (<i>min. talab 100%</i>)	115,3%	119,9%
Lahzali likvidlilik me‘yori (<i>min. talab 25%</i>)	112,3%	134,7%

*jami aktivlar qiymatidan REPO bitimlari bo‘yicha sotilgan yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlar qoldig‘i chegirilgan.

3-jadval bank tizimi transformatsiyasining yana bir muhim o‘lchamini — likvidlilik barqarorligini — aks ettiradi. Transformatsiya strategiyasi banklarning moliyaviy chidamliligini oshirishni va xalqaro likvidlilik standartlariga muvofiqlikni ta‘minlashni ko‘zlagan. Jadval ko‘rsatadiki, bu yo‘nalishda yuqori natijalar qayd etilgan: yuqori likvidli aktivlar 133 229 mlrd. so‘mdan 189 082 mlrd. so‘mga — 41,9 foizga — oshib, ularning jami aktivlardagi ulushi 17,3 foizdan 21,1 foizga ko‘tarildi. Transformatsiya nuqtayi nazaridan ayniqsa muhimi shundaki, barcha likvidlilik me‘yorlari xalqaro standartlardan sezilarli darajada ustun. Likvidlilikni qoplash me‘yori (LCR) 193,8 foizdan 207,5 foizga yuksalib, Basel III minimal talabi (100%)dan ikki baravar ortiq — bu bank tizimining 30 kunlik moliyaviy stress davrida ham barqarorligini saqlay olishini anglatadi. Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori (NSFR) 119,9 foizga yetib, uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish ta‘minlanganini ko‘rsatadi. Lahzali likvidlilik me‘yori esa 112,3 foizdan 134,7 foizga oshib, minimal talabdan (25%) besh barobar yuqori. Biroq transformatsiya kontekstida bu ko‘rsatkichlarni tanqidiy ko‘zdan kechirish ham lozim. LCR ko‘rsatkichining 207,5 foiz darajasida turishi bank tizimining transformatsiyaning keyingi bosqichida — kredit va investitsiya faolligini oshirish, YaIMga nisbatan kreditlar ulushini ko‘paytirish — yetarli imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi kredit qo‘yilmalarining YaIMga nisbatan mutanosibligini oshirishni maqsad qilib qo‘ygan, ammo haddan ortiq likvid aktivlar saqlanishi bu maqsadga erishishni cheklab qo‘ymoqda. Demak, 3-jadval ko‘rsatkichlari transformatsiya jarayonida moliyaviy barqarorlik ta‘minlangan deb baholanishi bilan birga, likvid resurslarni samaraliroq joylashtirib, iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shish — transformatsiyaning navbatdagi strategik vazifasi — ekanini ham yaqqol ko‘rsatib bermoqda.

Shunday bo‘lsa-da, LCR ko‘rsatkichining 207,5 foiz darajasida bo‘lishi ortiqcha ehtiyot maqsadida saqlanayotgan likvid aktivlar mavjudligini bildiradi. Bu esa bank resurslarining samarali joylashtirilmayotganini ko‘rsatib, foyda olish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Shuning uchun tijorat banklari likvid aktivlar ulushini optimal darajada ushlab turgan holda, ularning bir qismini kredit portfeli yoki investitsiya instrumentlari orqali iqtisodiyotga yo‘naltirishi maqsadga muvofiq.

Uch jadvalning birgalikdagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank tizimi transformatsiya jarayonida moliyaviy barqarorlik bo‘yicha ijobiy natijalar qayd etmoqda, biroq tarkibiy islohotlar hali yakunlanmagan. 1-jadval regulyativ kapitalning 20,9 foizga oshib, xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlasa, 2-jadval davlat banklaridagi NPL darajasi (3,2%) hali ham





muammo bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. 3-jadval esa yuqori likvidlik zaxiralari (LCR 207,5%) kredit faolligini kuchaytirish uchun ishlatilishi mumkinligini namoyon qiladi. Xulosa qilib aytganda, 2026-yilga qadar xususiy ulushni 60 foizga yetkazish va kreditlarni YaIMga nisbatan oshirish maqsadlariga erishish uchun islohotlarni tezlashtirish zarur.

Xulosa

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayoni bir qator muhim yo‘nalishlarni qamrab olishini ko‘rsatadi. Kapital yetarliligi — transformatsiyaning moliyaviy barqarorlik jihatidan muvaffaqiyatli kechayotganini tasdiqlovchi asosiy o‘lchovdir. Regulyativ kapital 20,9 foizga oshib, kapital monandlilik darajasi 18,3 foizga yetdi — bu Basel III talabidan ikki barobar yuqori bo‘lib, xalqaro investorlar uchun ishonchlilik darajasi ortayotganini ko‘rsatadi. Muammoli kreditlar (NPL) — hali to‘liq hal etilmagan muammo bo‘lib qolmoqda. Umumiy NPL darajasi 3,0 foizni tashkil etsa-da, davlat banklarida (3,2%) xususiy banklarga (2,6%) nisbatan yuqori bo‘lishi xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish zarurligini isbotlaydi. Likvidlilik barqarorligi — keyingi bosqich uchun muhim imkoniyat sifatida baholanadi. LCR 207,5 foizga yetib, minimal talabdan ikki barobar oshishi moliyaviy mustahkamlikni ko‘rsatsa-da, likvid resurslardan samarasiz foydalanilayotganligini ham anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, bank tizimi transformatsiyasi ijobiy yo‘nalishda davom etmoqda. Biroq 2026-yilga qadar xususiy ulushni 60 foizga yetkazish va kreditlarni YaIMga nisbatan oshirish maqsadlariga erishish uchun xususiylashtirish, IFRS 9 standartlariga o‘tish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha islohotlarni yanada jadallashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Abdullayev Yo., Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. Bank ishi: darslik. – Toshkent: Moliya-iqtisod, 2009. – 463 b.
4. IMF. Uzbekistan — Financial Sector Assessment Program (FSAP). Country Report No. 25/145. – Washington D.C., 2025. <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2025/04/30/Uzbekistan-Financial-System-Stability-Assessment-560254>
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari. www.cbu.uz
6. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Assessment Program (FSAP) Report. — Washington D.C., 2025. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099072925165040123/pdf/BOSIB-098cfdae-26d9-446a-9607-c30f373e1f1b.pdf>

